



## THE POTENTIAL OF FOREIGN INVESTMENTS AND MODERN TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE IN THE ZARAFSHAN OASIS

**Fazliddin Erkinovich Tuyev**

*Independent researcher, DSc*

*Associate Professor, Bukhara State Pedagogical Institute*

*E-mail: [fazli1820bek@gmail.com](mailto:fazli1820bek@gmail.com)*

*Bukhara, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Zarafshan oasis, foreign investments, agricultural machinery, pumping stations, agrocluster, product export, modernization, pumping stations, innovative industry, farms, processing industry, regional cooperation.

**Received:** 20.10.25

**Accepted:** 21.10.25

**Published:** 22.10.25

**Abstract:** The article shows positive experiences in the Zarafshan oasis in the modernization of agriculture, reconstruction of pumping stations, establishment of agroclusters and provision of modern equipment through attracting foreign and local investments. It is noted that in cooperation with countries such as Japan, China, Germany and Russia, it was possible to improve agricultural mini-equipment and infrastructure, increase product processing and export potential.

## ZARAFSHON VOHASIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALAR VA ZAMONAVIY TEXNIKA IMKONIYATLARI

**Fazliddin Erkinovich Tuyev**

*Mustaqil izlanuvchi, DSc*

*Buxoro davlat Pedagogika instituti dotsent*

*E-mail: [fazli1820bek@gmail.com](mailto:fazli1820bek@gmail.com)*

*Buxoro, O‘zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Zarafshon vohasi, xorijiy investitsiyalar, qishloq xo‘jaligi texnikasi, nasos stansiyalari, agroklastlar, mahsulot eksport, modernizatsiya, nasos stansiyalari, innovatsion sanoat, fermer xo‘jaliklari, qayta ishlash sanoati, mintaqaviy hamkorlik.

**Annotatsiya:** Maqolada Zarafshon vohasida xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb qilish orqali qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash, nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish, agroklastlarlar tashkil etish va zamonaviy texnika bilan ta‘minlashdagi ijobiy tajribalar ko‘rsatilgan. Yaponiya, Xitoy, Germaniya va Rossiya kabi davlatlar bilan hamkorlikda qishloq xo‘jaligi

mini-texnikasi va infratuzilmasini takomillashtirish, mahsulotlarni qayta ishlash va eksport salohiyatini oshirishga erishilganligi ta'kidlanadi.

## ПОТЕНЦИАЛ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ И СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА

**Фазлиддин Эркинович Туев**

*Самостоятельный исследователь, DSc*

*Доцент Бухарского государственного педагогического института*

*E-mail: [fazli1820bek@gmail.com](mailto:fazli1820bek@gmail.com)*

*Бухара, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>Ключевые слова:</b> Зарафшанский оазис, иностранные инвестиции, сельскохозяйственная техника, насосные станции, агрокластер, экспорт продукции, модернизация, насосные станции, инновационная промышленность, фермерские хозяйства, перерабатывающая промышленность, региональное сотрудничество.</p> | <p><b>Аннотация:</b> В статье показан положительный опыт Зарафшанского оазиса в модернизации сельского хозяйства, реконструкции насосных станций, создании агрокластеров и оснащении современным оборудованием за счет привлечения иностранных и местных инвестиций. Отмечено, что при сотрудничестве с такими странами, как Япония, Китай, Германия и Россия, удалось улучшить сельскохозяйственную мини-технику и инфраструктуру, повысить переработку продукции и экспортный потенциал.</p> |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

**Kirish.** O‘zbekiston respublikasiga investitsiyalar jalb qilinishi boshlanib, 2003-2008 yillar mobaynida Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlariga uzoq va yaqin xorijiy davlatlar sarmoyalarining kiritilishi natijasida viloyatlarda ijtimoiy ahvol bir qadar yaxshilangan. Investitsiyalar oqimining jadallashishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ma’lumki, mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyoti bevosita investitsiyalar oqimiga bog‘liq.

**Natija va muhokama.** Zarafshon vohasi mintaqaviy tashqi aloqalarni jonlantirish orqali xorijiy va mahalliy sarmoyalarning ma’lum qismini qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga va moddiy texnik bazasini mustahkamlashga o‘z e’tiborini qaratgandi. 2008-yil Samarqand tadbirkorlar uyushmasi Yaponiya firmalari bilan ham hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Fermerlar va tadbirkorlarning buyurtmalari asosida Yaponiyadan dastlabki avtoko‘targichlar, elektrogeneratorlar, minitraktorlar olib kelingan. Uyushma ikki tomonlama hamkorlikni yanada kuchaytirish, Yaponiyadan qishloq xo‘jaligi minitexnikalarini ko‘proq keltirish maqsadida shu mamlakatning Nagoya shahrida o‘z vakolatxonasini ochishga erishgan. Bunda Yaponiyaning jahonga taniqli tashkilotlaridan biri JETROning amaliy ko‘magi katta bo‘lgandi. Yangi

vakolatxonaning dastlabki muvaffaqiyatlaridan biri jahon qurilish bozorida o'z o'rniga ega bo'lgan "NICHIIHA" Kompaniyasi bilan shartnoma imzolagani bo'ldi. Mazkur kompaniya Yaponiyada ishlab chiqariladigan, binolarning old qismi panellarining 40 foizini yetkazib bergandi. "NICHIIHA" mahsulotlarining afzalligi shundaki, ular ekologik sof, yuqori darajada shovqin o'tkazmaydi, yong'inga nisbatan xavfsiz, binoni issiq saqlaydi. Asosiysi, uni o'rnatishda optiqcha xarajatlar talab etilmaydi. Yaponiyaning "TOYOTA", "KOMATSU", "MITSHUBISI", "SAKAI" kabi jahonga mashhur kompaniyalaridan 30 turdan ortiq qishloq xo'jaligida ishlatiladigan minitexnikalar keltirgan edilar[1]. Ular fermerlar, tadbirkorlar, kichik korxonalar, qurilish tashkilotlari yumushlarini osonlashtirgan.

2010-yil Buxoro viloyatga kiritilgan investitsiya miqdori 2069,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2011-yil 2761,4 mlrd. so'mga yetgan. Shundan, qishloq xo'jaligi uchun foiz hisobida oladigan bo'lsak, 2010-yil 0,2 foiz, 2011-yil esa 3,4 foizni tashkil etgan[2]. Navoiy viloyatiga esa 2009-yilda jami: 587,7 mlrd. so'm investitsiya kiritilgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2011-yilda 1285,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, shundan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun 38,6 mlrd. so'm yo'naltirilgan[3]. Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon xo'jaliklari hisobidan amalga oshirilib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 96,6 foizni, sut ishlab chiqarishda 95,7 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 57,7 foizni tashkil etdi[4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 28-martdagi PQ-2156-sonli, 2015-yil 25-avgustdagi PQ-2396-sonli hamda 2021-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-5005-son va 2021-yil 29-iyuldagi "Rossiya Federatsiyaning Davlat taraqqiyot korporatsiyasi "VEB.RF" ishtirokida Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand va Surxandaryo viloyatlarida 95 ta nasos stansiyasini modernizatsiya qilish loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5201-son qarorlari ijrosini ta'minlash hamda 2022-yilga mo'ljallangan suv resurslaridan samarali foydalanish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash ishlarini davom ettirish, irrigatsiya va melioratsiya ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha kiritilayotgan loyihalar samaradorligini yanada oshirish maqsadida "Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki" loyihasi asosida "Amu-Buxoro-1" nasos stansiyasidagi mukammal ta'mirlash va modernizatsiyalash maqsadida Xitoy Xalq Respublikasining "China National Technical Import and Export Corporation" kompaniyasi tomonidan "CNTIC" tashkiloti qurilish ishlariga jalb qilingan[5].

Zamonaviy nasos stansiyasi qurilishi xorijiy sarmoyalar hisobiga amalga oshirilib, qiymati 82 million 960 ming AQSh dollari sarflangan. "Amu-Buxoro-1" nasos stansiyasida 8 dona, har

birining quvvati 11,25 metr sekund bo'lgan yuqori unumli nasos agregatlari o'rnatilgan. "Amu-Buxoro-2" nasos stansiyasida esa XXRsining "Shina Nuclier-22 and Construction Co., Ltd" tashkiloti tomonidan qayta tiklash-rekonstruksiya ishlari olib borilgan bo'lsa, buning uchun xorijiy sarmoyalar hisobidan qiymati 46,65 mln dollariga teng mablag'lar ajratilgandi[6]. "Amu-Buxoro-2" nasos stansiyasini qayta tiklash, rekonstruksiya qilish ishlarida Yaponiyaning "JICA" kompaniyasi ham o'z sarmoyasi bilan ishtirok etayotganini qayd etish lozim. Hidroinshootdagi rekonstruksiya natijasida 10 ta zamonaviy energiya tejamkor nasos agregati qurilgan edi[7].

Bundan tashqari, qiymati 406 million AQSh dollardan ortiq bo'lgan loyiha asosida Amu-Buxoro-I, Amu-Buxoro-II, Quyi Mozor, Qiziltepa va Qiziltepa-I nasos stansiyalari rekonstruksiya qilingan. Buning samarasida Buxoro viloyatida 275 ming, Navoiy viloyatida 40 ming gektar yer suv bilan barqaror ta'minlangan edi. Yiliga 134,2 million kilovatt elektr energiyasi, 25,6 milliard so'mdan ziyod budget mablag'i tejalgan[8]. Qolaversa, mintaqalardagi qishloq xo'jaligi ekin yerlari meliorativ holatini yaxshilashda katta ahamiyatga ega mazkur nasos stansiyalarida olib borilgan ta'mirlash va modernizatsiyalash ishlarini natijasida ekin yerlarining hosildorligi oshib, aholining meva-sabzavotlarni yetishtirishga bo'lgan ishtiyoqlarini oshirib, iqtisodiy ahvolini yaxshilashga imkon yaratgan edi.

Zarafshon vohasida bir qator yirik "mega-loyihalar"ning ishga tushirilishi mintaqani Respublikaning "Innovatsion sanoat xabi"ga aylantirgandi. Buning dastlabgi odimlari 2017-yildan respublikaning barcha mintaqalarida amaliy natijalar bilan boshlangan edi. Jumladan, 2017-yil Buxoro viloyatida umumiy qiymati 21,8 million dollarlik loyiha doirasida Xitoy, Germaniya, Daniya texnologiyalari asosida meva-sabzavotlarni quritish, muzlatish, murabbo, jem va tuzlamalar ishlab chiqarish quvvatlari, muzlatkich va sublimatsiya tashkil etilgan. Bu yiliga 10 ming tonna meva-sabzavotni qayta ishlash, dastlabki yillarda 6,5 million dollar miqdoridagi mahsulot eksport qilish imkonini bergan. Natijada, 250 doimiy, mingdan ortiq mavsumiy ish o'rni yaratilgandi[9].

Buxoro tumanida yiliga 20 ming tonna meva-sabzavotni qayta ishlash imkoniga va 3100 tonna sig'imli muzlatkichli omborxonaga ega bo'lgan "Properti Industri" MChJ ishtirokida sabzavotchilik, 67 gektar maydonda tokzor barpo etgan va fermer xo'jaliklarining 340 gektar yer maydoni birlashtirilgan "Galariver" MChJ ishtirokida uzumchilik, 40 gektar maydonda intensiv bog' yaratgan, fermer xo'jaliklarining 314 gektar yer maydoni birlashtirilgan, sig'imi 750 tonnaga teng muzlatkichli omborxonasi mavjud "Emir parranda" MChJ ishtirokida meva-sabzavotchilik, G'ijduvon tumanidagi "Usmon Sher Shamshod" MChJ logistika markazi ishtirokida meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil qilingan. Yuqorida nomlari qayd etilgan klasterlar tomonidan

2020-yilda qiymati 13.5 mln AQSh dollariga teng bo'lgan mahsulotlarni eksport qilish maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, 2019-yilga nisbatan 2,6 barobar ko'p demakdir[10].

Navoiy viloyatining Nurota, Qiziltepa, Karmana va Xatirchi tumanlaridagi sabzavotchilik-polizchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va issiqxona xo'jaliklari klaster tashkil qilingan edi. Jumladan, "Kozimbek nurli kelajak sari" fermer xo'jaligining 150 gektar maydondagi yarim pakana shaftoli bog'i va 300 tonna sig'imga ega sovutkichli omborxona tashkil qilingan. "Sogdiana non" MChJning 500 gektar maydonda intensiv usulda shaftoli bog'i barpo etgan. Qiziltepa tumanidagi "Yangi asr" fermer xo'jaligiga qarashli yillik quvvati 17000 tonna sutni qayta ishlovchi kompleks, Karmana tumanidagi "Zarafshon golden ground" MChJning 3,5 gektar maydonda tashkil etgan issiqxonasi, Xatirchi tumanidagi "Tasmachi iqboli" fermer xo'jaligiga qarashli mayizni qayta ishlash va qadoqlash kompleksi faoliyat yuritgan[11].

Samarqand viloyatida meva-sabzavotni qayta ishlash sanoatida 75 ta loyiha amalga oshirilib, 180 million dollar investitsiyalar o'zlashtirilgan. Natijada, viloyat 62 mln. AQSh dollarlik, 80 ming tonna meva-sabzavotlarni Xitoy, Rossiya, Ukraina, Turkiya, Eron, Iroq, Guruziya, Belarusiya, Ozarbayjon kabi davlatlarga ekport qilgan. 2021-yil viloyatda ytishtirilgan hosilni viloyatda qayta ishlash provardida esa tayyor mahsulotlarni eksport qilishga ustuvor ahamiyat qaratilgan. Samarqand tumanidagi "Agromir" MChJ ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga iqtisoslashgan yirik sanoat sanoat markazlaridan hisoblanadi. 2021-yil "Agromir" MChJda 4 ta sex faoliyat ko'rsatib, ularda pomidor qaylami, quyiltirilgan sharbat, sharbat va nektarlar hamda konserva mahsulotlari tayyorlangan. 13 gektar maydonda tashkil qilingan bu korxonada 400 nafar doimiy, 300 nafardan ortiq mavsumiy ishchi xodimlar faoliyat olib borgan. Bir mavsumda 20 ming tonna pomidordan tamat tayyorlashga mo'ljallangan sexlar Italiyadan keltirilgan uskunalar bilan jihozlangan. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 80 foizi xorijiy davlatlarga eksportga yo'naltirilgan. "Bulung'ur Afrosiyob meva" qo'shma korxonasida esa yiliga 25 ming tonna meva qayta ishlanib 100 foiz mahsulotlar eksportga yo'naltirilgan. Negaki, bu korxona tomonidan qayta ishlangan mahsulotlarning tabiiyligi yuqoriligi (Birikisi 70 foizni tashkil qiladigi) tufayli xaridorgirdir. "Bulung'ur Afrosiyob meva" qo'shma korxonasiga asosiy xomashyoni Bulung'ur va Baxmal tumanlari dehqon va fermer xo'jaliklari ytkazib beradi. Bu tumanlardagi aholining asosiy qismi mevachilikka asoslangan klaster tashkil qilingan edi[12].

Mirishkor dehqonlar bejizga, "Texnika-dehqonning qanoti" deyishmagan. Darhaqiqat, qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan mo'l hosil yetishtirish, aynan qishloq xo'jaligi texnikalariga bog'liq. Shu bois, Zarafshon vohasidagi agroklastar korxonalari rahbarlari, dehqon va fermer xo'jaliklari tomonidan sohani rivojiga ilmiy yondoshilgan holda, zamonaviy qishloq xo'jaligi

texnikalari xarid qilishga alohida e'tibor qaratgan edilar. Albatta, texnikalar xaridida xorijiy sarmoyalar ham jalb qilingan.

Buxoro viloyatida iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiya, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga katta e'tibor qaratilgan. Birgina 2018-yilda chet ellik investorlar ishtirokidagi 22 ta loyiha doirasida 110 million AQSh dollarilik sarmoya o'zlashtirilgan[13]. "BCT Clucter" MChJ shaklidagi xorijiy korxonaning Romitan tumanidagi agrokompleksi moddiy-texnik bazasi mustahkamlangan edi. Rossiyaning "Petromaruz" kompaniyasi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan 8 million AQSh dollari miqdoridagi sarmoya hisobidan 210 ta zamonaviy traktor, ekskavator, 139 ta kultivator va boshqa texnikalar xarid qilingandi. Bu esa, paxta yetishtirish bilan bog'liq barcha agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bajarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan[14]. Navoiy viloyatiga 2021-yilda 420 ta qishloq xo'jaligi texnikalari olib kelinib, qo'shimcha tarzda shu yilning o'zida 4 ming 500 dan ortiq texnikadan 3 ming 101 tasi ta'mirlanib, soz holatga keltirilgan texnikalarning 950 tasi Xatirchi tumaniga, 803 tasi Navbahor tumaniga to'g'ri kelgan edi[15].

Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanida qishloq xo'jaligini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish maqsadida Germaniya, Belorussiya, Xitoy va Turkiya davlatlaridan 113 mlrd. 225 mln. so'mlik har xil turdagi zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari keltirilgan. Shuningdek, fermer xo'jaliklari tomonidan 2018-2020 yillar oralig'ida 29 mlrd. 65 mln. so'mlik, 147 dona zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari xarid qilingan. Xususan, Kattaming "Agroservis MTP" MChJ tomonidan 13 mlrd. 737 mln. so'mlik 46 dona, "Kattaqo'rg'on klaster" MChJ tomonidan 49 mlrd. 426 mln. so'mlik 150 dona, "Amina gold invest" MChJ tomonidan 20 mlrd. 996 mln. so'mlik 183 dona yangi qishloq xo'jaligi texnikalari olib kelingan edi. 2020-yil viloyatga 512 dona zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari keltirilgan. Shuningdek, "O'zagroinspeksiya"ning Samarqand viloyat boshqarmasi tomonidan 2020-yilning 1-dekabr holatiga, qishloq xo'jaligi va boshqa texnikalarning nazorati doirasida 3 mlrd. 711 mln. so'mdan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatilgandi[16]. Bularning barchasidan ko'zlangan maqsad, aholini sifatli va arzon qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etgan.

**Xulosa.** Zarafshon vohasi va unga qarashli hududlarda mintaqaviy tashqi aloqalarni rivojlantirish, xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb etish orqali qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya qilish va mustahkamlashga katta e'tibor qaratilgan. Yaponiya, Xitoy, Rossiya va Yevropa mamlakatlari bilan samarali hamkorliklar natijasida zamonaviy agrotexnika, nasos stansiyalari va irrigatsiya ob'ektlari qurilib, meliorativ ishlar tizimli amalga oshirilgan. Bu esa

qishloq xo'jaligi hosildorligining oshishi, mahsulot ishlab chiqarish va qayta ishlash salohiyatining kuchayishiga, shu bilan birga eksport salohiyatining kengayishiga olib keldi. Ayniqsa, klasterlar va agrokomplekslar ta'sisi, yangi ish o'rinlari yaratilishi iqtisodiy rivojlanishga va aholi turmush darajasining oshishiga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, xorijiy investitsiyalar va texnologiyalarni jalb qilish orqali Zarafshon vohasi va unga bog'liq viloyatlarda qishloq xo'jaligini innovatsion tarzda rivojlantirish yo'lida muhim yutuqlarga erishilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Самарқанд вилоят ҳокимлиги жорий архиви. 1552-фонд, 1-рўйхат, 157-йиғма жилд, 29-варақ.; Сатторов А. Tadbikorlar tayanchi. // Халқ сўзи. 2008-йил 28-март, №-62. -Б. 8.
2. Бухоро вилояти статистика бошқармаси Ахборотномаси (2010-2011 й). –Бухоро., 2012. –Б. 66.; Бухоро вилоят Қишлоқ хўжалик бошқармасининг жорий архиви, 2014-йил ҳисоботи, 13-йиғма жилд, 145-варақ.
3. Навоий вилояти статистика бошқармаси. Навоий вилоятининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг асосий кўрсаткичлари. Навоий-2011. –Б. 14-16.
4. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси. Бухоро вилояти статистика бошқармаси. Бухоро вилояти ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг асосий кўрсаткичлари. 2012-йил январь-декабрь ҳисоботи, Бухоро-2013. –Б. 16-18.
5. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1459-fond, 1-ro'yxat, 1755-yig'ma jild, 104-106-varaqlar.
6. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1459-fond, 1-ro'yxat, 1752-yig'ma jild, 205-206-varaqlar.
7. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1459-fond, 1-ro'yxat, 1755-yig'ma jild, 104-106-varaqlar.
8. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1459-fond, 1-ro'yxat, 1755-yig'ma jild, 104-106-varaqlar.
9. Buxoro viloyat hokimligi joriy arxivi. 12/2-yig'ma jild, 55-varaq.
10. Buxoro viloyat hokimligi joriy arxivi. 14/1-yig'ma jild, 28-varaq.
11. Navoiy viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 1976-yig'ma jild, 139-varaq.; Navoiy viloyat hokimligi joriy arxivi. 219-yig'ma jild, 142-varaq.
12. Samarqand viloyat hokimligi joriy arxivi. 1552-fond, 1-ro'xat, 2321-yig'ma jild, 49-varaq.
13. Buxoro viloyat hokimligi joriy arxivi. 11-yig'ma jild, 32-varaq.

14. Buxoro viloyat hokimligi joriy arxivi. 19-yig'ma jild, 41-varaq.
5. Navoiy viloyat hokimligi joriy arxivi. 23-yig'ma jild, 75-varaq.
16. Samarqand viloyat hokimligi joriy arxivi. 1552-fond, 2011-yig'ma jild, 162-169-varaqlar.